

**OG'ZAKI NUTQNI RIVOJLANTIRUVCHI TOPSHIRIQLAR
TUZISH**

Asadova Jasmina Ahmadjon qizi

ToshDO'TAUning 3-bosqich talabasi

jasadova785@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada og'zaki nutqni rivojlantirishga qaratilgan topshiriqlarni tuzish tamoyillari hamda samaradorlik mezonlari tahlil qilinadi. Shuningdek, darslarda o'quvchilarning og'zaki ifoda qilish ko'nikmalarini takomillashtirishga xizmat qiluvchi topshiriqlarning namunaviy shakllari hamda metodik tavsiyalar beriladi.

Abstract: This article analyzes the principles of composing tasks aimed at developing oral speech and their effectiveness criteria. Also, sample forms of tasks and methodological recommendations are provided to improve students' oral expression skills in lessons.

Kalit so'zlar: og'zaki nutq, topshiriq, interaktiv metod, kommunikativ kompetensiya, faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv.

Keywords: oral speech, task, interactive method, communicative competence, activity-oriented approach.

Kirish

Bugungi kunda ta'limning asosiy maqsadi o'quvchilarda mustaqil fikrlash, aniq ifoda qilish va erkin muloqotga kirishish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Bu esa, birinchi navbatda, og'zaki nutqni rivojlantirishga yo'naltirilgan topshiriqlarning sifatli tuzilishini talab qiladi. Topshiriqlar nafaqat grammatik bilimlarni mustahkamlashi, balki shaxsiy fikrni ifodalash, munozara yuritish, hikoya qilish kabi ko'nikmalarni ham rivojlantirishi zarur.

1. Og'zaki nutq topshiriqlarining lingvodidaktik asoslari

Og‘zaki nutqni rivojlantirish topshiriqlari lingvodidaktika fanining asosiy tamoyillaridan – komplekslik, motivatsiyalilik, shaxsga yo‘naltirilganlik va kommunikativlik prinsiplari asosida qurilishi lozim. Til o‘rgatish jarayoni faqat grammatika yoki lug‘at boyligini oshirish bilan cheklanmasligi, balki o‘quvchining muloqotda faol ishtirok etish qobiliyatini shakllantirishi kerak (Asilova, 2020).

Tilshunos olma D. Yuldasheva ta’kidlaganidek, “O‘quvchi tilni o‘zlashtirar ekan, u faqat bilim olmasligi, balki uni amalda qo‘llay olishga ham erishmog‘i lozim. Bu esa og‘zaki nutq mashqlarini izchil va bosqichma-bosqich tuzishni taqozo etadi.”

Nutq faoliyati – bu insonning fikrini ifodalashdagi eng asosiy vositadir. Vigotskiy va Leontev singari psixolingvistlar nutqni tashqi faoliyatdan ichki tafakkurga olib boruvchi vosita deb hisoblashgan. Shunday ekan, har bir topshiriq o‘quvchining ichki tafakkurini og‘zaki ifoda bilan uyg‘unlashtirishi kerak.

2. Og‘zaki nutqni rivojlantiruvchi topshiriq turlari: tahlil va namunalar

Og‘zaki nutqni rivojlantirishda turli topshiriqlardan foydalanish maqsadga muvofiq. Quyida ularning turlari, ilmiy asoslari va o‘quvchilarga ta’siri yoritiladi:

a) Rolli o‘yinlar (dialogik mashqlar)

Bu topshiriqlar sotsiokognitiv yondashuv asosida quriladi. O‘quvchilar biror ijtimoiy rolni o‘zlashtirar ekan, ular real hayotdagi muloqotga yaqinlashadi.

Tajriba: 2022-yil Xalq ta’limi ilmiy-tadqiqot markazi o‘tkazgan kuzatuvlarga ko‘ra, rolli o‘yinlardan foydalangan sinflarda o‘quvchilarning og‘zaki ifoda tezligi 30% ga oshgan.

Namuna: “Do‘konda xarid qilish” vaziyatini ijro qilish – xaridor va sotuvchi roli.

b) Rasmlar asosida hikoya tuzish

Vizual asosli o‘rganish nazariyasi (Mayer, 2005) bo‘yicha inson miyasida tasvirlar asosida fikrlash kuchliroq rivojlanadi. O‘quvchi og‘zaki fikrlash bilan bir qatorda tasviriy tafakkurni ham rivojlantiradi.

Namuna: Rasmida tasvirlangan voqeani hikoya qilish (masalan: sayr, bayram, sport musobaqasi sahnasi).

c) Muammoli savollar va yechim topish

Konstruktivistik pedagogika tamoyillariga ko'ra, o'quvchi bilimni tayyor holatda emas, faol izlanish orqali o'zlashtiradi.

Metodik yechim: O'quvchilarga biror muammo beriladi va ular guruhdan muhokama orqali yechim topadi.

Namuna: "Agar maktabda mobil telefonlar ishlatishga ruxsat berilsa, qaysi saytlardan foydalanardingiz?" degan savol atrofida munozara.

d) Intervyu va suhbat topshiriqlari

Ilmiy asos: Bu topshiriqlar kooperativ o'rganish metodlariga asoslanadi. O'quvchilar bir-biridan axborot olish, fikr almashish orqali muloqot malakalarini mustahkamlaydi.

O'quvchining eshitish, tushunish va javob berish faoliyati bir vaqtida ishga tushadi.

Namuna: "Sevimli mashg'ulotingiz haqida suhbat", "Kutilmagan holatda qanday yo'l tutardingiz?" kabi suhbatlar.

e) Debatlar va erkin munozaralar

Kommunikativ kompetensiyani shakllantirish nazariyasi (Hymes, Canale & Swain) asosida fikrni asoslash, rad etish va himoya qilish ko'nikmalari rivojlanadi.

Bu usul o'quvchi fikr yuritishga, mantiqiy dalil keltirishga o'rganadi.

Namuna: "Ijtimoiy tarmoqlar yoshlar tarbiyasiga foydali yoki zararli?" mavzusida bahs.

3. Darsda og'zaki topshiriqlarning qo'llanish usullari

Og'zaki nutq topshiriqlari har bir darsda quyidagi metodik ketma-ketlik asosida kiritilishi mumkin:

Dars boshida – muhitga kirishish (ice-breaker) uchun qisqa og'zaki savol-javoblar;

Dars davomida – mavzuga oid muhokama, savol-javob, rolli o'yinlar;

Dars oxirida – yakuniy og'zaki xulosa, mavzuni umumlashtirishga yo'naltirilgan topshiriqlar. O'qituvchilar uchun rubrika asosida baholash (masalan: talaffuz, izchillik, grammatik to'g'rilik, fikr aniqligi) tavsiya etiladi, bu o'quvchiga

aniq mezonlar asosida rivojlanish imkonini beradi.

Xulosa

Zamonaviy ta'lif jarayonida o'quvchilarning og'zaki nutqini shakllantirish va rivojlanirish asosiy ustuvor yo'naliishlardan biridir. Til o'rganish faqat nazariy bilim emas, balki muloqotga kirishish, fikr almashish, o'z nuqtai nazarini ifoda eta olish kabi amaliy ko'nikmalarga asoslanadi. Bunday ko'nikmalar ni shakllantirishda og'zaki nutqni rivojlaniruvchi topshiriqlar muhim metodik vosita hisoblanadi.

Maqolada tahlil etilganidek, topshiriqlarni tuzishda lingvodidaktik va psixolingistik yondashuvlarga asoslanish lozim. Xususan, topshiriqlarning shaxsga yo'naltirilganligi, kommunikativlik darjası, real hayotiy vaziyatlarga mosligi va faollikni rag'batlantirishi ularning samaradorligini oshiradi. Rolli o'yinlar, vizual asosli hikoyalash, debatlar va muammoli topshiriqlar o'quvchilarning mustaqil fikrlash va muloqot madaniyatini shakllantirishda beqiyos rol o'ynaydi. Shuningdek, har bir darsda og'zaki mashqlarga muntazam ravishda o'rin berish, topshiriqlarni bosqichma-bosqich murakkablashtirish va baholash mezonlarini aniq belgilash metodik jihatdan muhimdir. Bunday yondashuv o'quvchilarning til faoliyatini faollashtirib, ularning ijtimoiy-kommunikativ kompetensiyasini rivojlanirishga xizmat qiladi.

Shu boisdan, og'zaki nutqni rivojlanirishga yo'naltirilgan topshiriqlarni tuzish o'qituvchidan puxta metodik tayyorgarlik, yangilikka ochiqlik va o'quvchi shaxsini chuqur anglashni talab etadi. Kelajakda bu yo'naliishda interaktiv texnologiyalar, multimedialiyy resurslar va differensial yondashuvni yanada keng joriy etish dolzarb bo'lib qoladi.

Foydalilanigan adabiyotlar

1. Абдурахмонова Г. Т. Ўзбек тилини ўқитиши методикаси. – Т.: Ўқитувчи, 2008.
2. Раъно Кўчқарова. Интерактив дарс ва мулоқотли нутқни шакллантириш. –Тошкент: Fan va texnologiya, 2016.

3. Rasulova G‘. Nutq madaniyati va uslubiy tafakkur. – Toshkent: Ma’naviyat, 2019.
4. Karimova D. M. O‘zbek tili darslarida og‘zaki nutqni rivojlantirish metodikasi. – Toshkent: Ilm Ziyo, 2020.
5. Mayer R. E. Multimedia Learning. – Cambridge University Press, 2001.
6. Hymes D. On Communicative Competence. – In: J. B. Pride & J. Holmes (Eds), Sociolinguistics, Penguin, 1972.